

Oriental Journal of Education



THE USE OF DIFFERENTIATED TASKS IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS

Kamola Khayrullayevna Khummamatova

Lecturer at Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: differentiated, individual, differentiated approach, tiered approach.

Received: 04.12.25

Accepted: 05.12.25

Published: 06.12.25

Abstract: The article examines the use of differentiated tasks in the effective organization of the educational process. It outlines methods for optimizing teaching by taking into account students' abilities, needs, and knowledge levels through differentiated and individualized approaches. The article also provides examples of differentiated tasks of varying difficulty levels and their assessment criteria. The potential for developing students' independent and creative activity through the integration of theoretical knowledge and practical assignments is emphasized.

O'QUV JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA DIFFERENSIAL TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH

Kamola Xayrullayevna Xummamatova

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: differensial, individual, differensial yondashuv, tabaqalashgan yondashuv.

Annotatsiya: Maqolada o'quv jarayonini samarali tashkil etishda differensial topshiriqlardan foydalanish masalasi o'rganilgan. Differensial va individual yondashuvlar yordamida o'quvchilarning qobiliyatlari, ehtiyojlari va bilim darajalarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini optimallashtirish usullari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, maqolada turli qiyinlik darajasidagi differensial topshiriqlar misollari va ularni baholash mezonlari keltirilgan. Nazariy bilimlar bilan amaliy topshiriqlarni uyg'unlashtirish orqali talabalarda mustaqil va ijodiy faoliyat

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННЫХ ЗАДАНИЙ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОЙ
ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА****Камола Хайруллаевна Хуммаматова***Преподаватель**Джизакского государственного педагогического университета**Джизак, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые	слова:	Аннотация:
дифференцированный, индивидуальный, дифференцированный подход, уровневый подход.		В статье изучается вопрос использования дифференцированных заданий при эффективной организации учебного процесса. Показаны методы оптимизации образовательного процесса с учетом способностей, потребностей и уровня знаний обучающихся на основе дифференцированного и индивидуального подходов. Кроме того, приведены примеры дифференцированных заданий различных уровней сложности и критерии их оценивания. Подчеркнуты возможности развития самостоятельной и творческой деятельности студентов посредством сочетания теоретических знаний и практических заданий.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogika ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4623-son qarori va 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, mamlakatdagi pedagogika ta'limini modernizatsiya qilish, zamonaviy ilmiy-pedagogik yondashuvlar va innovatsion ta'lim texnologiyalarini keng tatbiq etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1,2]. Ushbu hujjatlar ta'lim tizimida yuqori malakali, innovatsion fikrlaydigan va amaliy ko'nikmalarga ega pedagog kadrlarni tayyorlashni, shuningdek, ularning kasbiy faoliyatida samarali pedagogik jarayonlarni tashkil etish qobiliyatini shakllantirishni nazarda tutadi.

Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, ularni maktab o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalash bilan bog'liq murakkab pedagogik vazifalarni mustaqil va ijodiy yecha oladigan malakali mutaxassis sifatida shakllantirish pedagogika ta'limining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon talabalarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy pedagogik ko'nikmalarni rivojlantirish, o'quv jarayonida individual va guruh yondashuvni qo'llash, shuningdek, o'quvchilarning turli qobiliyat va ehtiyojlarini hisobga olgan holda samarali o'qitish ko'nikmalarini shakllantirishni talab etadi.

Bugungi kunda ilmiy-uslubiy manbalarda “differensiallash”, “differensial ta’lim”, “differensial yondashuv”, “tabaqalashtirish” kabi ko‘plab tushunchalar qo‘llanilmoqda hamda ularning mazmun va mohiyati turlicha talqin etib kelinmoqda [3,4,5,6,7,8]. Quyidagi jadvallarda (1-jadval) esa ayrim pedagog olimlar tomonidan ushbu tushunchalarga berilgan ta’riflar va izohlar bayon etilgan.

Manbalar	Ta’rif va izohlar
“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” [3]	O‘quv jarayonini differensial yondashuv asosida tashkil etish quyidagilarga asoslangan holda amalga oshiriladi: – differensial ta’lim bu o‘quv jarayonini tashkil etishning shunday shakli, unda o‘qituvchi ta’lim oluvchilar guruhini ular uchun muhim bo‘lgan sifatlar asosida shakllangan ta’lim mazmuniga ko‘ra o‘qitadi; – umumdidaktik tizimning muayyan qismi ta’lim oluvchilarning turli guruhlar uchun o‘quv jarayonining ixtisoslashuvini ta’minlaydi; – differensiallashtirish o‘quv jarayonini individuallashtirishning o‘ziga xos shakli hisoblanadi.
Б.М.Бим-Бад [4]	O‘qitishga differensial (lotincha <i>differentia</i> farq) yondashuv bu har bir ta’lim oluvchiga uning qobiliyati va o‘qishdagi muvaffaqiyatlariga mos tarzda moslashuvchan yondashuvdir.
М.К.Акимова [5].	O‘qitishni differensiallashtirish deganda mazmun, o‘quv talablarining darajasi, qiziqishlar, o‘qitish shakllari va boshqa belgilar bilan farqlanadigan barqaror yoki vaqtinchalik guruhlarini shakllantirish tushuniladi.
Г.В.Дорофеев ва бошқалар [6].	Differensiallash bu har bir ta’lim oluvchining umumiy ahamiyatga ega bo‘lgan va o‘zgarib turuvchi sharoitga moslashish imkonini ta’minlaydigan, ko‘p jihatdan uning moyilligiga mos keladigan yo‘nalishga e’tibor qaratilishini kafolatlovchi o‘qitish tizimidir.
И.М.Осмоловская [7].	Differensiallashtirish deganda shaxsning individual-tipologik xususiyatlari (qobiliyatlari, qiziqishlari, moyilliklari, intellektual faoliyat xususiyatlari va boshqalar)ni hisobga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil etish usuli tushuniladi.

R.Safarova [8].	O'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyati, intilishi va ehtiyojlaridan kelib chiqib ta'lim mazmunini tabaqalashtirish o'quv jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi va ta'lim oluvchining o'zini namoyon etishi uchun qulay sharoit yaratadi.
-----------------	--

1-jadval. Differensial ta'limga oid atamalarga berilgan ta'riflar va izohlar

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayonini differensial yondashuv asosida tashkil etish jarayonida o'qituvchi, avvalo, ta'lim oluvchilarda mavjud bo'lgan va o'quv faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi individual sifatlarni aniqlab, o'quv mazmunini ana shu farqlarga mos holda belgilashi lozim. Shuningdek, tanlab olingan turli toifadagi o'quvchilar uchun o'quv jarayonining maqsad va vazifalarini ixtisoslashtirish, ularning qobiliyat, tayyorgarlik darajasi hamda ehtiyojlariga mos o'quv faoliyatini tashkil etish differensial yondashuvning asosiy talabi sanaladi.

Bundan tashqari, differensial va individual yondashuvlar mazmunan o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda ular bir-birini to'ldiruvchi tamoyillar sifatida qo'llanadi. Individual farqlarni e'tiborga olish, ularni pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda yo'naltirish va rivojlantirish differensial yondashuvning metodik asosini tashkil etadi. Qayd etilganlarni inobatga olgan holda, tadqiqotimiz uchun "differensial yondashuv" tushunchasi quyidagi ishchi ta'rif sifatida qabul qilinadi:

Differensial yondashuv – o'qituvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlariga ko'ra ajralib turadigan guruhlariga maqsadli pedagogik ta'sir bo'lib, bu har bir ta'lim oluvchiga uning iqtidori va o'qishda erishgan muvaffaqiyatlariga muvofiq moslashuvchan yondashuvni ta'minlaydi.

Bugungi kunda differensial yondashuv muammolariga katta e'tibor qaratilmoqda. Buni ikkita asosiy yo'nalishga bo'lib o'rganish mumkin:

birinchi yo'nalish ta'lim mazmuni differensiasi bilan bog'liq. Ushbu yo'nalish turli xil ta'lim turlarini, shu jumladan individual o'quv rejalarni yaratish bilan bog'liqligi;

ikkinchi yo'nalish o'quvchilarni qobiliyatlari bo'yicha ajratish bilan bog'langan o'quv jarayonida differensiallashtirishni o'z ichiga oldi [9]

Amerikalik olim B. Blumning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar tabiiy ravishda turli qobiliyat va bilim darajalariga ega bo'lib, ularni uch asosiy toifaga ajratish mumkin. Birinchi toifa — bilimi past bo'lgan o'quvchilar, ular o'qishga katta vaqt va kuch sarflagan holda ham belgilangan bilim va ko'nikmalar darajasiga yetishmaydi. Ushbu guruhga kiruvchi o'quvchilar ko'pincha mustaqil o'qish va murakkab masalalarni yechishda qiyinchiliklarga duch keladi, shuning uchun ular uchun o'qituvchining qo'llab-quvvatlashi, individual yondashuv va differensiallashtirilgan topshiriqlar muhim ahamiyatga ega bo'ladi [10].

Ikkinchi toifa — iqtidorli o‘quvchilar, taxminan 5% ni tashkil qiladi. Bu bolalar ko‘pincha boshqalar erisha olmaydigan murakkab masalalarni tez va samarali yechishga qodir, ularning o‘rganish sur‘ati yuqori bo‘ladi. Ularni qiziqtiradigan va rivojlantiradigan topshiriqlar taqdim etilmasa, bu iqtidor to‘liq rivojlanmasligi yoki o‘quv jarayonidan zerikish xavfi paydo bo‘ladi. Shu sababli, bu guruh uchun murakkab va yaratish talab qiladigan, izlanishga undaydigan differensiallashtirilgan o‘quv materiallari va mustaqil ishlar zarurdir.

Uchinchi toifa — ko‘pchilikni tashkil etuvchi, taxminan 30% ga yaqin o‘rta bilimli o‘quvchilar. Ularning bilim va ko‘nikmalarini o‘zlashtirish qobiliyati, asosan, o‘qishga sarflangan vaqt va e‘tibor bilan belgilanadi. Bu guruhda o‘quvchilarni motivatsiya qilish, ularga individual yondashuvni ta‘minlash va darslarni qiziqarli hamda samarali shakllantirish orqali natijalarni sezilarli darajada oshirish mumkin.

Quyida “Butun sonlar halqasida taqqoslamalar. Eyler va Ferma teoremlari” mavzusi bo‘yicha uchta darajali differensial topshiriqlarga (qiyinlik darajasiga qarab) na‘muna keltirilgan:

	Bo‘lish natijasida hosil bo‘ladigan qoldiqni toping	Oxirgi ikkita raqamini toping	Isbotlang
1-daraja	a) 24567 ni 237 ga; b) 15^{231} ni 14 ga; c) $15^{231} + 2$ ni 16 ga. d) $a=2$, $m=9$ uchun Eyler teoremasi o‘rinli ekanligini aniqlang; e) $a=2$, $p=5$ uchun Ferma teoremasi o‘rinli ekanligini aniqlang.	2^{999}	Agar $(a + b - c) : 2$ bo‘lsa, $(a - b - c) : 2$ bo‘lishini
2-daraja	a) $2^{100} + 5^{200}$ ni 29 ga; b) $3 \cdot 5^{75} + 4 \cdot 7^{100}$ ni 132 ga; c) $53^{29} \cdot 43^{17}$ ni 37 ga; d) 7^{67} ni 12 ga Eyler teoremasi yordamida toping; e) 93^{253} ni 7 ga Ferma teoremasi yordamida toping.	289^{289}	$\forall a, b$ uchun $(11a + 5)^{2n+1} + (11b + 6)^{2n+1} \equiv (\text{mod } 11)$
3-daraja	a) $13^{1054} - 23 \cdot 16^{285} + 22^{17}$ ni 15 ga; b) $(12371^{56} + 34^{29})^{28}$ ni 111 ga;	9^{99}	a) $2^{11 \cdot 31} \equiv 2 (\text{mod } 11 \cdot 31)$; b) $(a^{10} - a^6 - a^4 + 1) : 35$, $(a, 35) = 1$ Eyler teoremasi yordamida;

2-jadval. Qiyinlik darajasiga ko‘ra differensial topshiriqlar

Ushbu topshiriqlarni bajarishda o'quvchilarni baholash uchun aniq mezonlar belgilanishi lozim. Quyidagi 3-jadval topshiriqlarning qiyinlik darajasi bo'yicha berilgan ballar oralig'ini va baholashda e'tibor qaratiladigan asosiy jihatlarni ko'rsatadi. Shu orqali har bir darajadagi topshiriqning amaliy va nazariy natijasi aniq baholanadi.

Topshiriqning qiyinlik darajasi	ball	Baholashda e'tibor qaratiladigan jihatlar
1-daraja	60-69	-mavzuning umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi; -berilgan topshiriqni o'qituvchi raxbarligida yechishi; - vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi.
2-daraja	70-89	-mavzudagi tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida berilgan topshiriqlarni yechishda samarali qo'llay olishi; -mavzuga oid ta'rif va teoremlarni bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni berilgan topshiriqlarni bajarishda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi; - vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;
3-daraja	90-100	- mavzudagi tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi; - berilgan topshiriqlarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi; -vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim.

3-jadval. Differensial topshiriqlarni baholash mezonlari

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, differensial yondashuv va topshiriqlardan foydalanish o'quv jarayonini individual tarzda tashkil etishga, har bir o'quvchining qobiliyat va ehtiyojlariga moslashishga imkon beradi. Nazariy bilimlarni amaliy topshiriqlar bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini samarali rivojlantirish, ularning motivatsiyasini oshirish hamda ta'lim sifatini yaxshilash mumkin. Shu bilan birga, turli mavzular bo'yicha differensial topshiriqlar tayyorlash va ularni baholash mezonlari bilan birgalikda qo'llash pedagogik jarayonning sifatini va amaliy samarasini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida" gi, PQ-4623-son qarori, lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ning 2020 yil 14 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
3. Pedagogika: entsiklopediya / "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 1-jild / Toshkent, 2015. – 320 bet.
4. Бим-Бад Б.М. Педагогический энциклопедический словарь. М., 2002. С. 74.
5. Акимова, М. К. Психофизиологические особенности индивидуальности школьников : Учет и коррекция Текст. : учеб. пособие для студ. высш. учеб. завед. М.: Академия, 2002. - 160 с.
6. Дорофеев, Г.В., Кузнецова Л.В., Суворова С.Б., Фирсов В.В. Дифференциация в обучении математике / Математика в школе.- 1990.-№4- С.
7. Осмоловская, И. М. Дифференциация процесса обучения в современной школе. — М. : Изд-во Моск. психолого-социальн. ин-та, 2003. — 176 с.
8. Safarova Tabaqalashtirilgan ta'limga o'tishning ayrim masalalari // «Umumta'lim maktablarida tabaqalashtirib o'qitish muammolari» Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. T.: O'zPFITI. 2003. - B.124-127.47
9. Xoshimova Sh.S. Talabalarni differensial yondashuv asosida o'qitish samaradorligi. "Xotin qizlarning fan, ta'lim, madaniyat va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish sohasidagi yutuqlari " xalqaro ilmiy amaliy anjuman 2021 yil 10-11 aprel
10. D.I.Yunusova., M.Mamatqulova. Matematika o'qitish texnologiyalari va loyihalash, O'quv qo'llanam, Toshkent 2022.